



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA O'ZINI O'ZI TASHKIL ETISH TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Alimov Bekzod Nematovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchi

Annotatsiya: Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda pedagogik mohiyati tahlil etiladi. Ushbu kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalari va didaktik shart-sharoitlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida o'zini o'zi boshqarish va refleksiv faoliyat ko'nikmalarining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi tashkil etish, pedagogik kompetensiya, refleksiya, vaqt menejmenti, mustaqil ta'lim, kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The theoretical foundations of self-organization in future teachers, its structural components, and pedagogical significance are analyzed. Modern methods, pedagogical technologies, and didactic conditions for developing this competence are outlined. The findings demonstrate the importance of self-management and reflective skills in the professional development of teachers.

Key words: self-organization, pedagogical competence, reflection, time management, independent learning, professional development, self-control, educational technologies.

Аннотация: Рассматриваются теоретические основы понятия самоорганизации будущих учителей, его структурные компоненты и педагогическая сущность. Освещаются современные методы, педагогические технологии и дидактические условия формирования данной компетенции. Результаты исследования показывают значимость навыков самоуправления и рефлексивной деятельности в профессиональном развитии педагогов.

Ключевые слова: самоорганизация, педагогическая компетенция, рефлексия, тайм-менеджмент, самостоятельное обучение, профессиональное развитие, самоконтроль, образовательные технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi sharoitida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini samarali tashkil etuvchi, innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan va o'z faoliyatini mustaqil boshqara oladigan mutaxassis sifatida namoyon bo'lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish pedagogik ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish zarurati mamlakatimizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida ta'limning asosiy prinsiplari sifatida shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ustuvorligi belgilangan. Shuningdek, Prezidentning PF-5847-son Farmonida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Mazkur normativ talablar bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasini shakllantirishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi ^[1-4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zini o'zi tashkil etish tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, ammo umumiy mazmunda u shaxsning o'z faoliyatini ongli ravishda rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayon shaxsning ichki resurslarini safarbar etish, maqsadga erishish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish va natijalarni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zini o'zi tashkil etish shaxsning mustaqilligi, irodaviy sifatleri, motivatsiyasi va refleksiv qobiliyatlari bilan uzviy aloqada shakllanadi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun o'zini o'zi tashkil etish nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki kasbiy muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. Chunki pedagogik faoliyat murakkab, ko'p qirrali va doimiy o'zgaruvchan jarayon bo'lib, u yuqori darajadagi tashkiliy qobiliyatni talab qiladi. O'qituvchi dars jarayonini rejalashtirishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, o'quv materiallarini tanlashi va o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi lozim. Bunday faoliyatni samarali amalga oshirish esa bevosita o'zini o'zi tashkil etish darajasiga bog'liq.

O'zini o'zi tashkil etishning tarkibiy tuzilmasi murakkab bo'lib, u bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat. Avvalo, motivatsion komponent shaxsning o'z faoliyatini tashkil etishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishini ifodalaydi. Bu komponent o'qituvchining o'z ustida ishlashga intilishi va kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi. Kognitiv komponent esa rejalashtirish, tahlil qilish va qaror qabul qilishga oid bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi. Amaliy faoliyat komponenti orqali shaxs o'z bilimlarini real faoliyatda qo'llaydi, vaqtni boshqaradi va vazifalarni samarali bajaradi. Refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi tashkil etishning tarkibiy tuzilmasi murakkab bo'lib, u bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat. Ushbu jarayonning mazmunini yanada aniqroq ochib berish maqsadida G.R. Tojiboyeva tomonidan o'zini o'zi tashkil etishning quyidagi tarkibiy komponentlari ajratib ko'rsatilgan: maqsad qo'yish va motivatsiya, rejalashtirish va loyihalash, muloqot va hamkorlik, monitoring va baholash, refleksiv fikrlash hamda tuzatish (korreksiya).

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular shaxsning o'z faoliyatini samarali tashkil etishida izchil bosqichlarni ifodalaydi. Jumladan, maqsad qo'yish va motivatsiya bosqichi faoliyatning yo'nalishini belgilasa, rejalashtirish va loyihalash bosqichi ushbu maqsadlarga erishish strategiyasini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Muloqot va hamkorlik komponenti pedagogik jarayonda o'zaro ta'sir va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Monitoring va baholash esa faoliyat natijalarini aniqlash va samaradorligini baholash imkonini beradi. Refleksiv fikrlash orqali shaxs o'z faoliyatini chuqur tahlil qiladi, tuzatish (korreksiya) bosqichi esa aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatni takomillashtirishga yo'naltiriladi ^[5].

Refleksiv komponent doirasida pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, G.R. Tojiboyeva pedagogik faoliyatni o'z-o'zini tahlil qilishning (self-analysis) quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi. Xususan, qisqa (baholovchi) tahlil mashg'ulotning umumiy ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining bajarilganlik darajasini umumiy baholashga qaratiladi. Strukturaviy (bosqichma-bosqich) tahlil esa mashg'ulotning asosiy elementlarini aniqlash, ularning maqsadga muvofiqligini baholash hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdagi rolini ochib berishga xizmat qiladi.

Tizimli tahlil mashg'ulotni yagona didaktik tizim sifatida ko'rib chiqadi va bunda asosiy didaktik vazifaning bajarilishi bilan bir qatorda rivojlantiruvchi maqsadlarning amalga oshirilishi, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishi hamda o'qitish usullarini o'zlashtirish darajasi tahlil qilinadi. Strukturaviy-vaqt tahlili esa mashg'ulotning har bir bosqichida vaqt taqsimotining samaradorligini baholashga yo'naltiriladi.

Didaktik tahlil ta'lim metodlari, usullari va vositalarining tanlanishi hamda qo'llanilishini, o'quv materialining o'zlashtirilish darajasini, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatiga pedagogik rahbarlikni o'rganishga xizmat qiladi. Aspektli tahlil esa mashg'ulotning muayyan jihatini chuqur o'rganishga qaratilib, bunda dars maqsadlarining amalga oshirilishi, rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish usullari, ularning qiziqishini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini baholash hamda muammoli ta'limni tashkil etish kabi jihatlar kompleks ravishda tahlil qilinadi.

Shuningdek, o'z-o'zini tahlil qilish pedagogning refleksiv faoliyatining muhim ko'rinishi bo'lib, u o'tkazilgan mashg'ulotni ma'lum algoritim yoki mezonlar asosida tahlil qilish va baholash jarayonini anglatadi. Bunday tahlil og'zaki yoki yozma shaklda amalga oshirilishi mumkin va ko'pincha darsni tashqi tahlil qilish jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

G.R. Tojiboyeva o'z-o'zini tahlil qilishning bir necha darajalarini ham ajratadi. Emotsional daraja pedagogning o'z faoliyatidan qoniqish yoki qoniqmaslik hissi bilan bog'liq bo'lsa, baholovchi daraja natijalarning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligini aniqlashga qaratiladi. Metodik darajada esa faoliyat mavjud pedagogik talablar asosida tahlil qilinadi. Eng yuqori bosqich hisoblangan refleksiv darajada esa mashg'ulotning barcha jihatlarini o'rnatidagi sabab-oqibat bog'liqliklari chuqur tahlil qilinadi va bu jarayonda psixologik-pedagogik bilimlarga tayaniladi ^[6].

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, o'zini o'zi tashkil etish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. U ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, pedagogik faoliyatni tizimlashtiradi va o'qituvchining ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'zini o'zi tashkil etish universal kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu kompetensiya o'qituvchining kommunikativ, axborot-kommunikatsion va refleksiv kompetensiyalari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida, ayniqsa, raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan bir davrda o'zini o'zi tashkil etishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn platformalar va raqamli resurslardan samarali foydalanish o'qituvchidan yuqori darajadagi mustaqillik va o'z faoliyatini boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi. Shu sababli, pedagogik ta'lim jarayonida talabalarni mustaqil faoliyatga jalb qilish, ularning refleksiv fikrlashini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.



Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etishni shakllantirish uchun maxsus didaktik shart-sharoitlar yaratish zarur. Bunda talabalarning mustaqil ishlari, loyiha faoliyati, portfoliolar yuritish va refleksiv mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Loyiha metodi talabalarni mustaqil rejalashtirish, muammolarni hal qilish va natijaga erishishga o'rgatadi. Portfolio texnologiyasi esa talabani shaxsiy yutuqlarini tizimlashtirish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Vaqt menejmenti elementlarini o'rgatish orqali talabalar o'z faoliyatini samarali tashkil etishni o'rganadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universiteti (CHDPU) talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasining shakllanish darajasini aniqlash hamda ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika (boshlang'ich holatni aniqlash) va yakuniy nazorat (tajriba ta'siridan keyingi natijalar). Tadqiqotda 3-bosqich talabalari jalb etildi.

Talabalarning o'zini o'zi tashkil etish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi: maqsad qo'yish, rejalashtirish, refleksiya, monitoring va korreksiya. Natijalar uch daraja bo'yicha tasniflandi: yuqori, o'rta va past.

TAHLIL VA NATIJALAR

Daraja	Tajribagacha (%)	Tajribadan so'ng (%)
Yuqori	20	45
O'rta	50	40
Past	30	15

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba yakunida yuqori darajadagi talabalar soni sezilarli darajada oshgan, past daraja esa kamaygan. Bu esa qo'llanilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatadi.


Natijalar tahlili

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tashkil etilgan pedagogik faoliyat talabalarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, refleksiv faoliyatni rivojlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish va monitoring jarayonlari muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Yuqori darajaning 20 foizdan 45 foizga oshgani talabalarning:

- mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanganini;
- o'z faoliyatini rejalashtira olish darajasi oshganini;
- refleksiv fikrlash shakllanganini ko'rsatadi.

Past darajaning kamayishi esa metodik ta'sir samaradorligini tasdiqlaydi (1-rasm).



1-rasm: Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasi darajalarining tajribagacha va tajribadan keyingi ko'rsatkichlari

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradilar. Ular o'z faoliyatini rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va natijalarni tahlil qilishda yuqori natijalarga erishadilar. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zini o'zi tashkil etish o'qituvchining kasbiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. U pedagogik mahoratni oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va kasbiy moslashuvni tezlashtirishga xizmat qiladi. O'z faoliyatini samarali tashkil eta oladigan o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi bilimlarni egallaydi va ta'lim jarayoniga ijodiy yondashadi. Natijada u raqobatbardosh, zamonaviy talablarga javob bera oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiya o'qituvchining kasbiy samaradorligi, ijodiy salohiyati va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4884-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5085887>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3171590>
5. Tojiboyeva G.R. Vaqtni boshqarish texnologiyasi asosida talabalarning o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish // Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў. Илмий-методик журнал. № 2, 2026 й. – Б. 281–286.
6. Tojiboyeva G.R., Axmadova A. Specifics of developing a teacher's capacity for self-analysis as a manifestation of the individual-personal approach // World Bulletin of Education and Learning (WBEL). Volume 2, Issue 2, February 2026. – P. 185–196.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.